



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 5-son

VOLUME 4 / ISSUE 5 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” –
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”
huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston
matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda
1140-sonli guvohnoma bilan davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent
davlat yuridik universitetiga tegishli.
Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal
materiallaridan foydalanish, tarqatish
va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan
amalgan oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev,
K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Jurnal 24.10.2024-yilda bosmaxonaga
topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 12 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 152.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy
boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

MAS‘UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili
va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori
(Boston, AQSH)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori
(Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi
huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi
(Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti
dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik
fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik
fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция – Yurisprudensiya – Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Ш. Жахонов, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Й. Махмудов, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Журнал передан в типографию
24.10.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 12. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 152.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Верховном судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” –
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”
legal scientific and practical journal
was registered by the Press and Infor-
mation Agency of Uzbekistan on De-
cember 22, 2020 with certificate No.
1140.

The journal is included in
the list of journals of the Higher
Attestation Commission under the
Ministry of Higher Education, Science
and Innovations of the Republic of
Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent
State University of Law. All rights re-
served. Use, distribution and reproduc-
tion of journal materials are carried
out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

The journal is submitted to the Printing
house on 24.10.2024.

Paper size: A4.

Cond. p.p. 12. Unit: 100.

Order: 152.

Published in Printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of
Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Associate
Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and
Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy
in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law
(Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk,
Poland)

A. Khoshimxonov – Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law
(Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges
under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World
Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of
Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **ODILQORIYEV HOJIMUROD TO'XTAMURODOVICH**
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniylilikni ta'minlashdagi roli va ahamiyati

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 19 **XUDAYBERGENOV BEXZOD BAXTIYOROVICH**
Qurilish pudrati shartnomasining huquqiy tabiati bilan bog'liq xorijiy davlatlar qonunchiligi
28 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA XODJIAKBAROVNA**
Oilada mulkiy nizolarni sudgacha hal etishning alternativ vositasi sifatida oilaviy huquqiy shartnomalarning yuridik tabiati

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOY TA'MINOT HUQUQI

- 40 **RAXIMOV MIRYOQUB AKTAMOVICH**
Mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash prinsipining ayrim jihatlar

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 54 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**
Yaroqli va yaroqsiz jinoyatga suiqasd qilish
70 **YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI**
Sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning huquqiy jihatlar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

- 78 **ALISHAYEV SOBIR TURSUNBOYEVICH**
Sun'iy intellekt va tahliliy tizimlarni hukm chiqarishda qo'llash: istiqbollar va muammolar
92 **SHONAZAROV ABDUVALI SHONAZAROVICH**
Qalbakilashtirilgan hujjatlarni va qimmatli qog'ozlarni aniqlashda e'tibor berilishi zarur bo'lgan jihatlar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 ОДИЛКОРИЕВ ХОДЖИМУРОД ТУХТАМУРДОВИЧ

Роль и значение Конституционного суда Республики Узбекистан в обеспечении конституционной законности в стране

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

19 ХУДАЙБЕРГЕНОВ БЕХЗОД БАХТИЁРОВИЧ

Законодательство зарубежных государств относительно правовой природы договора строительного подряда

28 САЙДИВАЛИЕВА ХУРШИДА ХОДЖИАКБАРОВНА

Правовая природа семейно-правового договора как альтернативное средство разрешения семейных имущественных споров до суда

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

40 РАХИМОВ МИРЁКУБ АКТАМОВИЧ

Некоторые аспекты принципа запрещения дискриминации в сфере труда и занятий

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

54 КАМАЛОВА ДИЛДОРА ГАЙРАТОВНА

Годное и негодное покушение на преступление

70 ЮСУПОВА ФАРИНГИЗ УКТАМ КИЗИ

Правовые аспекты обеспечения безопасности персональных данных в сфере здравоохранения

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

78 АЛИШАЕВ СОБИР ТУРСУНБОЕВИЧ

Применение искусственного интеллекта и аналитических систем при вынесении приговора: перспективы и вызовы

92 ШОНАЗАРОВ АБДУВАЛИ ШОНАЗАРОВИЧ

Аспекты, которые необходимо учитывать при обнаружении поддельных документов и ценных бумаг

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

8 **ODILQORIEV KHOJIMUROD TUKHTAMURODOVICH**

Role and significance of the Constitutional court of the Republic of Uzbekistan in ensuring constitutional legality in the country

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW.
INTERNATIONAL PRIVATE LAW

19 **KHUDAYBERGENOV BEHZOD BAKHTIYOROVICH**

Legislation of foreign countries on the legal nature of the construction contract

28 **SAYDIVALIEVA KHURSHIDA KHODJIABBAROVNA**

The legal nature of family-legal contracts as an alternative means of pre-trial solution of property dispute in the family

12.00.05 – LABOR LAW. THE LAW OF SOCIAL SECURITY

40 **RAKHIMOV MIRYOQUB AKTAMOVICH**

Some aspects of the principle of prohibition of discrimination in the field of work and training

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY.
CRIMINAL PROCEDURAL LAW

54 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**

Viable and unviable attempt to commit a crime

70 **YUSUPOVA FARINGIZ UKTAM KIZI**

Legal aspects of ensuring the security of personal data in the field of healthcare

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. CRIMINOLOGY, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC
EXPERTISE

78 **ALISHAEV SOBIR TURSUNBOEVICH**

Application of artificial intelligence and analytical systems for sentencing: prospects and challenges

92 **SHONAZAROV ABDUVALI SHONAZAROVICH**

Aspects to consider when detecting fake documents and securities

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.10.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.10.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.10.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5./NFTY6059

UDC: 347.4(045)(575.1)

QURILISH PUDRATI SHARTNOMASINING HUQUQIY TABIATI BILAN BOG'LIQ XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGI

Xudaybergenov Bexzod Baxtiyrovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Biznes huquqi kafedrası dotsenti,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0001-5701-0785
e-mail: xudaybergenovbexzod@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish pudrati shartnomasining huquqiy tabiati, uni tuzish tartibi va muhim shartlari, qurilish pudrati shartnomasining rivojlanish tartibi va huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, taraflarning (buyurtmachi va pudratchi) huquq va majburiyatlari, ularning javobgarligini belgilash masalasi, qurilish pudrati shartnomasi bilan bog'liq xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlil qilingan. Xususan, pudrat shartnomasiga doir qoidalarini o'z ichiga olgan Fransiyaning 1804-yildagi Fuqarolik kodeksi, Shveysariya Majburiyatlar to'g'risidagi qonuni, Avstriya Fuqarolik kodeksi, Germaniya Fuqarolik kodeksi, Angliyaning 1977-yildagi Adolatsiz shartnoma shartlari to'g'risidagi qonuni, 1996-yildagi Qurilish va rekonstruksiya qilish to'g'risidagi qonuni, Gruziya Fuqarolik kodeksi, Bolgariyaning 1951-yildagi Majburiyatlar va shartnomalar to'g'risidagi qonuni, Chexiya Fuqarolik kodeksi, bojxona va xalqaro qurilish shartnomalarining keng tarqalgan shartlarini o'z ichiga olgan, xususiyl xalqaro huquqdagi qurilish pudrati shartnomasini tartibga solishning asosiy manbaya sifatida talqin qilinadigan lex constructionis tahlil qilindi. Bundan tashqari, nazariy-huquqiy asoslar va xorijiy davlatlar qonun hujjatlariga tayangan holda qurilish pudrati shartnomasi yuzasidan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qurilish pudrati shartnomasi, buyurtmachi, pudratchi, subpudratchi, loyiha-smeta hujjatlari, lex constructionis

ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ОТНОСИТЕЛЬНО ПРАВОВОЙ ПРИРОДЫ ДОГОВОРА СТРОИТЕЛЬНОГО ПОДРЯДА

Худайберенов Бехзод Бахтиёрович,
доктор юридических наук, доцент кафедры «Бизнес-право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируется правовая природа договора строительного подряда, порядок и существенные условия его заключения, особенности порядка разработки и правового регулирования договора строительного подряда, права и обязанности сторон (заказчика и подрядчика), вопрос установления их ответственности, законодательство

зарубежных государств, связанное с договором строительного подряда. В частности, проанализирован Гражданский кодекс Франции 1804 г., Закон об обязательственных правах Швейцарии, Гражданский кодекс Австрии, Гражданский кодекс Германии, Закон о недобросовестных условиях договоров 1977 г. и Закон о строительстве и реконструкции Великобритании 1996 г., Гражданский кодекс Грузии, Закон Болгарии об обязательствах и контрактах 1951 г., Гражданский кодекс Чешской Республики, а также *lex constructionis*, содержащий общие условия таможенных и международных договоров на строительство, который интерпретируется как основной источник регулирования договора строительного подряда в международном частном праве. Кроме того, опираясь на теоретико-правовые основы и законодательство зарубежных государств, разработаны научные выводы, предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности разрешения споров, возникающих по договору строительного подряда.

Ключевые слова: договор строительного подряда, заказчик, подрядчик, субподрядчик, проектно-сметная документация, *lex constructionis*

LEGISLATION OF FOREIGN COUNTRIES ON THE LEGAL NATURE OF THE CONSTRUCTION CONTRACT

Khudaybergenov Behzod Bakhtiyorovich,

Associate professor of the Department of Business Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. This article analyzes the legal nature of the construction contract agreement, the procedure and essential conditions for its conclusion, the procedure for the development of the construction contract agreement and the specifics of legal regulation, the rights and obligations of the parties (customer and contractor), the issue of determining their liability, and the legislation of foreign countries related to the construction contract agreement. In particular, the article analyzes the following legal sources that include provisions related to construction contracts: the French Civil Code of 1804, the Swiss Code of Obligations, the Austrian Civil Code, the German Civil Code, the UK Unfair Contract Terms Act of 1977, the Construction and Reconstruction Act of 1996, the Georgian Civil Code, the Bulgarian Law on Obligations and Contracts of 1951, the Czech Civil Code, as well as common provisions in customs and international construction contracts. These sources are interpreted as the primary reference for regulating construction contracts in private international law, known as *lex constructionis*. In addition, based on the theoretical and legal foundations and the legislation of foreign countries, scientific conclusions, proposals, and recommendations have been developed aimed at improving the effectiveness of resolving disputes arising from a construction contract.

Keywords: construction contract agreement, customer, contractor, subcontractor, design and estimate documentation, *lex constructionis*

Kirish

Qurilish pudrati shartnomasi bo'yicha taraflarning huquq va majburiyatlarini tartibga solishning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda ushbu sohani takomillashtirishning ilmiy yo'nalishlarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat berilmoqda. Qurilish pudrati shartnomasi shartlarini belgilashda fuqarolik hu-

quqining muhim prinsiplari – insofililik, oqilonalik va adolatlilikka rioya qilish, shartnoma shartlari orqali huquqlar kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, taraflardan biriga, ayniqsa, buyurtmachiga qonun bilan qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar bermaslik, yetkazilgan zararlarni qoplashning zamonaviy mexanizmlari, pudratchi va subpudratchi o'rtasidagi mu-

nosabatlarning o'ziga xosligi va huquqiy tartibga solinishi bilan bog'liq masalalarni ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Yurtimizda tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish, mulkning daxlsizligini ta'minlash, fuqarolik huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishda qurilish pudrati shartnomasini lozim darajada bajarishga alohida e'tibor berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugungi sharoitda qurilish pudrati shartnomasi tarafi bo'lgan buyurtmachining huquqlarini kengaytirmasdan, bevosita ishni bajaradigan pudratchining huquqiy maqomi va rolini qonunchilik bilan yanada mustahkamlash iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan foydalidir.

Hozirgi kunda davlatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan yo'nalishga ustuvorlik berilayotgan ekan, shartnomaviy munosabatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, u xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etishning asosiy vositasi bo'lib, huquqiy munosabatlar shakliga aylangan. Bundan tashqari, O'zbekiston korxonalari xalqaro bozorga chiqmoqda, bu esa tashqi iqtisodiy operatsiyalarning eng murakkab turlaridan biri sifatida xalqaro shartnomalar tuzishni talab qilmoqda. Shunga bog'liq ravishda aytish joizki, xorijiy davlatlarning fuqarolik qonunchiligida qurilish pudrati shartnomasini huquqiy tartibga solishni o'rganish va taqqoslash milliy qonunchiligimizni rivojlantirishda nihoyatda dolzarbdir.

Qurilish pudrati shartnomasi bajarilgan ishlarining keng doirasini tartibga soladi. Qurilish pudrati shartnomasi eng tarqalgan, "klassik" yo'nalishlardan biri bo'lib, unda turli xil bino va inshootlar quriladi. Ishlab chiqarish obyektlarini qurishning zamonaviy xorijiy amaliyotida to'liq ishlaydigan obyektni qurishni nazarda tutadigan "*kalitni topshirish*" mezonini alohida o'rin tutadi [1].

Xorijiy davlatlarning fuqarolik-huquqiy shartnoma to'g'risidagi qonunchiligiga xususiy huquqni kodifikatsiya qilish ta'sir

ko'rsatgan. Masalan, 1804-yilda Fransiya Fuqarolik kodeksi qabul qilindi [2]. Germaniya, Shveysariya va AQSh kabi boshqa rivojlangan davlatlar ham xuddi shu yo'ldan bordi. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, shartnoma munosabatlarini tartibga soluvchi alohida maxsus kodifikatsiyalangan huquqiy hujjat yaratilmadi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy metodlar qo'llangan. Xususan, pudrat shartnomasiga doir qoidalarini o'z ichiga olgan Fransiya Fuqarolik kodeksi, Shveysariya Majburiyatlar to'g'risidagi qonuni, Avstriya Fuqarolik kodeksi, Germaniya Fuqarolik kodeksi, Angliyaning Adolatsiz shartnoma shartlari to'g'risidagi qonuni va boshqa davlatlar qonunlari qiyosiy tahlil qilingan, shuningdek, bojxona va xalqaro qurilish shartnomalarining keng tarqalgan shartlarini o'z ichiga olgan, xususiy xalqaro huquqdagi qurilish pudrati shartnomasini tartibga solishning asosiy manbayi sifatida talqin qilinadigan *lex constitutionis* tahlil qilindi.

Tadqiqotning asosiy mazmuni qurilish pudrati shartnomasiga doir yondashuvlar, rejimlar va ularning O'zbekiston huquq tizimi uchun maqbulligini aniqlashdan iborat. Pudrat shartnomasidan kelib chiqqan nizolar bo'yicha 2020–2023-yillarda ko'rilgan iqtisodiy ishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yildan yilga ushbu toifadagi ishlar soni ortib borayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Xususan, 2020-yilda 2 336 ta, 2021-yilda 2 824 ta, 2022-yilda 5 033 ta, 2023-yilda 5 418 ta ish ko'rilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda ishlarni ko'rish hajmi ikki baravar ortgan. Ushbu raqamlar qurilish pudrat shartnomasi, uning taraflarining huquq va majburiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda [3].

Mavzuning batafsil mazmunini ochib berishga xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan tavsiyalar, xorijiy davlatlarda qurilish pudrati shartnomasiga doir qonunchilik

va milliy sud hujjatlari imkon beradi. Bugungi kunda roman-german huquq tizimiga kiruvchi mamlakatlarda shartnomadan kelib chiqadigan munosabatlar milliy fuqarolik kodekslari normalari bilan tartibga solinadi va anglo-sakson huquq tizimida ko'rib chiqilayotgan munosabatlar asosan sud amaliyoti va alohida ishlab chiqilgan maxsus qonunlar bilan (bu AQShning alohida shtatlariga tegishli) tartibga solinadi [4].

Tadqiqot natijalari

Chet el qonunchiligi shartnomalar va ularning turlari o'rtasida aniq farqlarni belgilamaydi. Taqqoslash uchun, bu yerda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va Yevropa mamlakatlarining roman-german oilasiga mansub tizimlaridagi bir qator fuqarolik kodekslari va qonunlarini aytish lozimki, ularda farqlar chuqur ko'rib chiqilmaydi. Ya'ni ularda shartnoma tushunchasi tabiatan o'zgarmasdir. Fuqarolik huquqi doktrinasida qurilish pudrati shartnomasining ko'p jihatlari noaniq, munozarali va huquqshunos olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Qurilish pudrati shartnomasi bilan bog'liq bartaraf qilish lozim bo'lgan muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: qurilish pudrati shartnomasi predmetining ta'rif, ish natijasi bo'yicha shartnoma taraflarining mulk huquqi, tugallangan ishlarni qabul qilish dalolatnomasini imzolash bo'yicha taraflar harakatlarining huquqiy tabiati kabilar kiradi. Huquqni qo'llash amaliyotida noaniqlikni hal qilish va bartaraf etishni talab qiladigan bir qator muammoli masalalar paydo bo'lmoqda. Shuning uchun qurilish pudrati shartnomasi nazariy jihatdan ham, huquqni qo'llash amaliyoti nuqtayi nazaridan ham jiddiy izlanishlarga muhtoj. Qurilish pudrati shartnomasini tavsiflash uchun qaysi faoliyatning "ish" deb hisoblanishini ham aniqlash kerak. Amaldagi fuqarolik qonunchiligida "ish" tushunchasining ta'rif mavjud emas.

Qurilish shartnomaviy munosabatlari huquqiy tartibga solish bo'yicha xorijiy tajriba quyidagi sabablarga ko'ra ham nazariy, ham amaliy qiziqish uyg'otadi. Birin-

chidan, O'zbekistonda qurilish loyihalarini amalga oshirish uchun xorijiy kapital tobora ko'proq jalb qilinmoqda. Ikkinchidan, mahalliy tadbirkorlar chet el elementi bilan bog'liq loyihalarda ishtirok etmoqda. Uchinchidan, qurilish pudrati shartnomalari turlari turli davlatlarning qonun va tartiblariga bo'ysunishlariga to'g'ri kelmoqda.

Tadqiqot natijalari tahlili

A.Vilkonis va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarida qurilish pudrati shartnomasini tahlil qilar ekan, ular xarajatlarni kamaytirish orqali qurilish ishlarining sifati buzilmasligi kerakligini alohida ta'kidlashadi [5]. Ayrim olimlar qurilish munosabatlaridagi nizolarni uch toifaga ajratadi:

- hamkorlikdagi ziddiyatlar va tushunmovchiliklar;
- shartnomadagi noaniqlik, kamchiliklar va nomuvofiqliklar;
- o'zaro shaxsiy munosabatlardan kelib chiqadigan ziddiyatlar [6].

Demak, qurilish munosabatlarida shartnomaning o'zi ham turli nizolarga sabab bo'lishi mumkin.

Fuqarolik huquqi nazariyasida muqobil majburiyatli shartnomalar xilma-xilligi bo'yicha uch guruhga ajratiladi: mulkni topshirish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish shartnomalari [7]. Qurilish pudrati shartnomasi ishlarni bajarish bo'yicha shartnomalar guruhiga kiradi va shartnomaning bir turi sifatida ko'rib chiqiladi.

Anglo-sakson huquq tizimi mamlakatlarda har xil turdagi shartnomalarni tartibga solishga sud amaliyoti katta hissa qo'shdi, uning yordamida shartnoma tushunchasi, uning shakli va muhim shartlariga talablar ishlab chiqildi. J. Krolning fikriga ko'ra, hozirgi bosqichda AQSh federal tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan Amerika huquqiy tizimi kontekstida shartnomani o'rganishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Ushbu holat har bir davlatda alohida huquqiy tizimlar mavjudligi sababli huquqiy tartibga solishda bir xillikning yo'qligiga olib kelmoqda [8].

Xorijiy mamlakatlarda qurilish pudrati shartnomalari tuzishni tartibga solishning huquqiy asosi ularning fuqarolik kodekslari hisoblanadi. Ya'ni qurilish pudrati shartnomasi munosabatlarini tartibga solish Fransiya Fuqarolik kodeksi, Germaniya Fuqarolik kodeksi, Ispaniya Fuqarolik kodeksi, Italiya Fuqarolik kodeksi, Gollandiya Fuqarolik kodeksi, Gruziya Fuqarolik kodeksi, Belarus Respublikasi Fuqarolik kodeksi bo'lim va moddalarida keltirilgan.

Aksariyat hollarda shartnoma kelishuv ma'nosini beradi. Fransiya Fuqarolik kodeksining 1101-moddasiga binoan, shartnoma bir yoki bir nechta shaxs boshqa shaxs yoki boshqa shaxslarga biror narsa o'tkazish, topshirish yoki hech narsa qilmaslik majburiyatini olishga doir kelishuvdir [9]. AQSh Savdo kodeksining 201-1-moddasida shartnoma odatda taraflarning kelishuvidan kelib chiqadigan huquqiy majburiyat ekanligi ta'kidlangan [10].

Gruziya Fuqarolik kodeksida esa faqat pudrat ishlarini bajarish bilan bog'liq umumiy qoidalarini tartibga soluvchi moddalar mavjud xolos. Gruziya Fuqarolik kodeksida pudrat shartnomasi alohida shartnoma turi sifatida ajratib ko'rsatilmagan [11]. Qurilish pudrati shartnomalari bo'yicha shunga o'xshash vaziyat 1951-yildagi "Bolgariyadagi majburiyatlar va shartnomalar to'g'risida"gi Qonunda ham mavjud. Bolgariya qonunchiligi faqat shartnoma munosabatlarini tartibga solishning umumiy shartlarini belgilaydi va shartnoma munosabatlarining turlarini ajratmaydi [12], masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida bo'lgani kabi. Chexiya Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2014-yil 1-yanvardan kuchga kirgan, uning uchinchi bo'limida "Ishlar" deb nomlangan bob mavjud va pudrat ishlarini bajarish uchun umumiy shartlar, qurilish ishlarining o'ziga xos xususiyatlari belgilangan. Bundan tashqari, Chexiya Respublikasi Fuqarolik kodeksining mulk huquqlarini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq bo'limlarida yer uchastkalari, shu

jumladan, qurilish pudrati shartnomasini tuzishga doir maxsus qoidalar keltirilgan [13].

Demak, biz Yevropa mamlakatlari fuqarolik qonunchiligining shartnomaviy munosabatlar turlarini to'liq tavsiflab o'tmaymiz hamda shartnoma shartnomalarini tuzish va bajarish uchun faqat umumiy shart-sharoitlarga rioya qilinadi, degan umumiy xulosaga kelamiz. Xorijiy mamlakatlarning fuqarolik qonunchiligi tahliliga ko'ra, ko'plab xorijiy mamlakatlarda qurilish pudrati shartnomasiga doir maxsus huquqiy tartibga solish mavjud emas va u shartnoma bo'yicha umumiy qoidalarga asoslanadi. Xorijiy davlatlar qonunchiligida pudrat shartnomasini turlarga bo'lish (maishiy, qurilish shartnomasi, loyihalash shartnomasi, tadqiqot ishlari va boshqalar) ham keng tarqalmagan, O'zbekiston va Rossiya qonunchiligida hamda ayrim Yevropa mamlakatlarida bo'lgani kabi. Shu sababli shartnomaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha mavjud xorijiy tajribani ichki qonunchilikka kiritish juda bahsli ko'rinadi. Asosiy muammo shundaki, ichki fuqarolik huquqi doktrinasi nuqtayi nazardan mavjud bo'lgan huquqiy mexanizmlarni bekor qilish mantiqsizlikdir.

Vaqt o'tishi bilan qurilish pudrati shartnomasini huquqiy tartibga solishning qayd etilgan xususiyatlari yanada ortdi. Bu, xususan, bojxona va xalqaro qurilish shartnomalarining keng tarqalgan shartlarini o'z ichiga olgan xususiy xalqaro huquqdagi qurilish pudrati shartnomasini tartibga solishning asosiy manbayi sifatida talqin qilinadigan *lex constructionis* atamasining paydo bo'lishi bilan o'z isbotini topmoqda. *Lex constructionis* huquqiy qo'llab-quvvatlash amaliyotini uzoq muddatli umumlashtirish natijasida FIDIC (fransuzcha Fédération Internationale des Ingénieurs-Conseils so'zlarining qisqartmasi) tomonidan xalqaro namunaviy pudrat shartnomasi loyihalarini ishlab chiqish keng tarqaldi. Milliy darajada buyurtmachilar va pudratchilar FIDIC platformasi tomonidan ishlab chiqilgan shartlarga tobora ko'proq murojaat

qilmoqdalar. Ushbu shartlar hozirgi fuqarolik qonunchiligi bilan bog'liq moddalarning mazmuniga ham ta'sir qilmasdan qolmaydi. Shunga qaramay, roman-german huquqiy tizimi mamlakatlarida qurilish pudrati shartnomasi bo'yicha umumiy qoidalar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, ular, qoida tariqasida, qurilish ishlarini bajarish bo'yicha alohida qoidalarni o'z ichiga oladi.

Anglo-sakson huquqiy tizimi mamlakatlarida qurilish shartnomasini huquqiy tartibga solishga shartnoma tushunchasi, talablar va uning muhim shartlarini o'z ichiga olgan sud amaliyoti shakllangan bo'lsa-da, tanqidlar ham yo'q emas. "Qurilish shartnomasi to'g'risidagi qonun" asari muallifi J. Krol AQShning federal tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan Amerika huquqiy tizimi kontekstida qurilish shartnomasini tadqiq qilishdagi qiyinchiliklarni ta'kidlaydi. Unga ko'ra, birinchidan, shtatlar soni bo'yicha elliktdan ko'p huquqiy tizim mavjudligini hisobga olgan holda huquqiy tartibga solishda bir xillik yo'q, ikkinchidan, federal qurilish shartnomalarini tuzish va bajarilishini tartibga soluvchi federal qonunchilik tizimining o'ziga xos xususiyatlari bor. Qurilish pudrati shartnomasi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda muallif XVIII asr oxiridan XX asrgacha bo'lgan uzoq vaqt davomida sud ishlarini chuqur tahlil qilgan va bu uning xulosalariga ishonish mumkinligini anglatadi. Uning ta'kidlashicha, qurilish pudrati shartnomalarini tuzish va bajarish uchun muhim bo'lgan huquqiy pozitsiyalar yaratilgan va hozirgacha ushbu pozitsiyalardan foydalaniladi [8].

Ingliz fuqarolik huquqi ham sud pretsedenti ta'siri ostida shakllangan. Biroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shartnoma huquqining eng muhim masalalari bo'yicha parlament hujjatlari qabul qilindi (masalan, 1967-yilda Noto'g'ri ma'lumot to'g'risidagi qonun, 1977-yilda Adolatsiz shartnoma shartlari to'g'risidagi qonun, Tovarlar va xizmatlarni yetkazib berish to'g'risidagi qonun, 1996-yilda Uy-joy grantlari, Qurilish va

rekonstruksiya qilish qonuni qabul qilindi) [14]. Ushbu me'yoriy hujjatlar qurilish pudrati shartnomasi tushunchasining ta'rifini o'z ichiga oladi, uning shakliga qo'yiladigan talablarni belgilaydi hamda taraflar o'rtasidagi nizolarni hal qilish tartibi va shartlarini ko'rsatadi. Biroq qurilish pudrati shartnomasini tuzishda shuni yodda tutish kerakki, Britaniya qonun chiqaruvchisi hech qachon umumiy (fundamental) xarakterdagi masalalarni hal qilish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan, umumiy qonun pretsedentiga tayanadi [15].

O'zbekiston huquqini ham o'z ichiga olgan roman-german huquqiy tizimi mamlakatda qurilish pudrat shartnomasidan kelib chiqadigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish tajribasi qiziqish uyg'otadi.

Germaniya Fuqarolik kodeksi (Bürgerliches Gesetzbuch Deutschlands) qurilish pudrati shartnomasi bo'yicha maxsus bo'limni o'z ichiga olmaydi [16]. Alohida normalar kichik bo'limga joylashtiriladi, masalan, "Qurilish pudrati va shunga o'xshash shartnomalar" deb nomlangan 9-bobda qurilish pudrati shartnomasiga bag'ishlangan moddalar mavjud. Bundan tashqari, qurilish pudrati ishlarida yoki qurilishni rejalashtirish yoki nazorat qilishga olib keladigan ishlarda kamchiliklar to'g'risida da'vo qilish uchun da'vo muddati mavjud. Bu besh yilni tashkil etadi. 648-moddada buyurtmachining qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasiga, qurilayotgan yoki ta'mirlanayotgan kemaga o'rnatiladigan qurilish ishlarini bajarish uchun garov ipotekasi ko'zda tutilgan. 648a-moddada pudratchining kompensatsiya olish huquqidan foydalanishini ta'minlashga qaratilgan huquqlar ko'zda tutilgan. Garov ish haqi miqdorida talab qilinishi mumkin. Agar buyurtmachi xavfsizlikni ta'minlash muddatini buzsa, pudratchi buyurtmachining yordami bo'lmagan taqdirda shartnomani bekor qilish to'g'risidagi 643-sonli shartnoma qoidalariga muvofiq shartnomani bekor qilishga haqlidir. O'zbekiston fuqarolik qonun-

chiligida shunga o'xshash xavfsizlik tuzilmalari mavjud emas.

Avstriya Fuqarolik kodeksida (Allgemeines Bürgerliches Gesetzbuch) pudrat shartnomasi bo'yicha normalar "Xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomalar" tarkibida keltiriladi [17]. Qurilish pudrati shartnomasidan kelib chiqadigan munosabatlari shartnoma qoidalar bilan tartibga solinadi. Pudratchi shartnoma tuzilgan paytdan boshlab buyurtmachidan kelishilgan ish haqining beshdan bir qismi miqdorida hali bajarilmagan ish uchun haq talab qilishi mumkin va shartnoma tuzilgan taqdirda, bu uch oy ichida bajarilishi kerak. Garov sifatida naqd pul, naqd pul depozitlari, omonat daftarchalari, bank kafolatlari yoki sug'urta ishlatilishi mumkin. Bunday xavfsizlikni ta'minlash xarajatlari, agar ular xavfsizlik summasining yillik ikki foizidan oshmasa, bunday xavfsizlikni oluvchi tomonidan qoplanadi. Agar buyurtmachi pudratchining xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi talabini bajarmasa, xavfsizlikni yetarli darajada yoki uni o'z vaqtida ta'minlamasa, pudratchi o'z majburiyatlarini bajara olmaydi hamda oqilona vaqt tayinlanishi sharti bilan (yetarli xavfsizlikni ta'minlash uchun) shartnomani bekor qilishini bildiradi. Pudratchining garov olish huquqini ta'minlaydigan normasi imperativ xususiyatga ega. Tarafalar o'zlarining kelishuvlari bilan uni bekor qila olmaydilar. Biroq buyurtmachi omma-viy huquq vakili yoki iste'molchi bo'lsa, bu chora qo'llanmaydi. O'zbekiston fuqarolik qonunchiligida pudratchining huquqlarini ta'minlashning bunday vositasi mavjud emas. Ish natijasidagi kamchiliklarni aniqlashda kompensatsiya shartnomalari to'g'risidagi umumiy qoidalar qo'llanishi kerak. Pudratchi ish natijasi shartnomaga muvofiqligini kafo-latlaydi.

Shveysariyaning Majburiyatlar to'g'risidagi qonuni Shveysariya fuqarolik kodeksining (Schweizerisches Zivilgesetzbuch) beshinchi qismi bo'lib, u shartnoma munosabatlarini tartibga soladi [18]. Majburiyatlar

to'g'risidagi qonunning o'n birinchi bo'limi pudrat shartnomasiga bag'ishlangan. Alohida qoidalar qurilish shartnomasidan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soladi. Ya'ni agar buyurtmachining yer uchastkasida bajarilgan ishlar yuzasidan nuqsonlar aniqlansa va ular tabiatan ortiqcha noqulayliklarga olib kelmasa, buyurtmachi ishni qabul qilishdan bosh tortishga haqli emas. Shu bilan birga, buyurtmachi ish natijasi qiymatining pasayishiga mutanosib ravishda narxni pasaytirishga yoki ortiqcha xarajatlarsiz kamchiliklarni tuzatish mumkin bo'lsa, pudratchi tomonidan ish natijasini bepul tuzatishni talab qilishga haqlidir. Bundan tashqari, buyurtmachi, agar pudratchining aybdorligini isbotlasa, zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega (368-modda). Buyurtmachining qurilishdagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha pudratchiga da'vo muddati qurilishda ishni bajarishda ishtirok etgan me'mor yoki muhandisga qurilish ishlari qabul qilingan kundan besh yilni tashkil etadi (371-modda). Agar pudratchining xarajatlari buyurtmachining yer uchastkasida binolarni qurish smetasidan oshirib yuborilgan bo'lsa, u ish haqini mutanosib ravishda kamaytirishni talab qilishga yoki agar qurilish tugallanmagan bo'lsa, pudratchiga uni davom ettirishni taqiqlashga; ish to'liq bajarilgan bo'lsa, pudratchiga adolatli kompensatsiya to'lashni talab qilish bilan shartnomani bekor qilishga haqlidir.

Napoleon kodeksi nomi bilan mashhur 1804-yildagi Fransiya Fuqarolik kodeksining (Code Civil des Français, Code Napoléon) VIII bis bobi "Kapital qurilishda pudrat shartnomalari" deb nomlanadi va aynan unda qurilish pudrati shartnomasi keltirilgan. U nisbatan yaqinda 1971-yil 16-iyundagi 71-579-sonli qonun bilan kiritilgan. Bunda shartnoma buyurtmachi va bosh pudratchi o'rtasidagi topshiriq shartnomasi shaklida tuziladi. Topshiriq shartnomasi asosida bir yoki bir nechta bino uchun qurilish loyihasini amalga oshirishni, shuningdek, xuddi shu maqsadda mustaqil ravishda qurishni

yoki zarur huquqiy, boshqaruv va moliyaviy harakatlarning to'liq yoki qisman bajarilishini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi (1831-1-modda). Kapital qurilishda pudrat shartnomasi uchinchi shaxslarga nisbatan faqat ko'chmas mulk huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar davlat kartotekasiga kiritilgan kundan boshlab amal qiladi (1831-3-modda). Bosh pudratchi buyurtmachi nomidan bitimlar tuzgan shaxslarga yuklatilgan majburiyatlar bajarilishining kafili hisoblanadi. Agar bosh pudratchi loyihada ko'zda tutilgan ishlarning bir qismini o'zi mustaqil ravishda bajarsa, bu vaziyatda unga 3-bo'lim – Ishlar va xizmatlarni bajarish to'g'risidagi shartnoma qoidalari qo'llanadi va shu bo'limda qayd etilgan pudratchining vazifalari yuklatiladi.

Qurilish pudrati shartnomasini huquqiy tartibga solish bo'yicha Yaponiya tajribasiga murojaat qilamiz. Yaponiyaning huquqiy tizimi o'zining barcha o'ziga xosligidan tashqari roman-german va anglo-sakson huquq oilalari ta'sirida bo'lganligi bilan ajralib turadi. Yaponiya Fuqarolik kodeksi va Qurilish to'g'risidagi qonunlarda pudrat bilan bog'liq qoidalar keltiriladi. Yaponiya Fuqarolik kodeksi [20] pudratchining yordamchilarni va subpudratchilarni jalb qilish huquqini tan oladi, shartnomada pudratchining o'zi bajarishi nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bundan tashqari, pudratchi buyurtmachi oldida yordamchilar va subpudratchilarning harakatlari uchun javobgardir. Subpudratchi qurilish sxemasidan foydalanganda subpudratchi pudratchi oldida javobgar bo'lib qoladi. Pudratchida shartnomada nazarda tutilgan barcha ishlarni bajarish uchun sub-

pudratchilarni jalb qilish huquqi mavjud emas: maxsus kelishuv bo'lmagan taqdirda subpudratchiga pudratchi tomonidan barcha ishlarni to'liq topshirish taqiqlanadi (Qurilish to'g'risidagi qonunning 22-moddasi). Buyurtmachi subpudratchini almashtirish huquqiga ega (Qurilish to'g'risidagi qonunning 23-moddasi). Yuqorida tavsiflangan chora-tadbirlar tizimi pudratchi tomonidan huquqbuzarliklarni bartaraf etishga va shartnomaning to'g'ri bajarilishini ta'minlashga qaratilgan.

Xulosalar

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Qurilish pudrati shartnomasidan kelib chiqadigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari tegishli huquqiy tizimning xarakteri bilan belgilanadi.

2. Roman-german va anglo-sakson huquqiy tizimlarining yaqinlashishi sharoitida tomonlar qurilish pudrati shartnomasini tuzishda hisobga olinishi kerak bo'lgan muhim mezon quyidagilar: birinchisida pretsedent xarakteri (kuchi) va ikkinchisida qonun xarakteri (kuchi) saqlanib qolgan.

3. Huquqiy tizimlardagi farqlarni yengib chiqadigan qurilish pudrati shartnomasini tartibga solishning umumiy manbasi "lex constructionis"dir. Uning munosabatlarni tartibga solishdagi pozitsiyasi faqat mustahkamlanishda davom etmoqda.

4. Savdo baryerlarini, aloqa va hamkorlik to'siqlarini olib tashlashda globallashtirish sharoitida qurilish pudrati shartnomasini tartibga solishga doir xorijiy tajribani o'rganish zarurati va uning O'zbekiston qonunchiligiga oqilona moslashtirish, shubhasiz, muhimdir.

REFERENCES

1. Karapetov A.G. Rastorjenije narushennogo dogovora v rossiyskom i zarubejnom prave [Termination of a breached contract in Russian and foreign law]. Moscow, Statut, 2007, p. 466.

2. Grazhdanskiy kodeks. Kodeks Napoleona [Civil Code. Napoleonic Code]. 1804. Available at: https://pnu.edu.ru/ru/faculties_old/full_time/isptic/iogip/study/studentsbooks/histsources2/igpzio49/
3. Pudrat shartnomasidan kelib chiqqan nizolar bo'yicha 2020–2023-yillarda ko'rilgan iqtisodiy ishlar haqida ma'lumot [Information on economic cases in 2020-2023 regarding disputes arising from the contract]. Available at: <https://stat.sud.uz/>
4. Muradyan D.I. Ponyatiye i vidi dogovora bitovogo podryada [Concept and types of household contract]. Moscow, RUDN Publ., 2014, pp. 153–159.
5. Vilkonis A., Antucheviciene J., Kutut V. Construction Contracts Quality Assessment from the Point of View of Contractor and Customer. *Buildings*, 2023, vol. 13, p. 1154. DOI: 10.3390/buildings13051154
6. Arar J.A., Papineau C., Poirier E. An empirical evaluation of the causes leading to binding dispute resolution mechanisms in the Quebec construction industry. *Int. J. Constr. Manag.* 2023.
7. Braginskiy M.I., Vitryanskiy V.V. Dogovornoye pravo [Contract law]. Moscow, Statut Publ., 2002, p. 6.
8. Krol J.J.P. Construction Contract Law. N. York, Wiley Publ., 1993, pp. 78, 65.
9. French Civil Code. Available at: <https://www.fd.ulisboa.pt/wp-content/uploads/2014/12/Codigo-Civil-Frances-French-Civil-Code-english-version.pdf>
10. US Commercial Code. Available at: <https://www.govinfo.gov/content/pkg/STATUTE-77/pdf/STATUTE-77-Pg630.pdf>
11. Civil Code of Georgia. Available at: <https://matsne.gov.ge/en/document/view/31702?publication=129>
12. Bulgarian Law on Obligations and Contracts in Bulgaria. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30498974
13. Civil Code of the Czech Republic. Available at: https://is.muni.cz/el/1422/podzim2015/SOC038/um/NObcZ_anglicky_strojovy_preklad.pdf
14. Nikitin V.V. Dogovory v stroitel'stve s inostrannym uchastiyem [Contracts in construction with foreign participation]. *Bulletin of arbitration practice*, 2016, vol. 3.
15. Jaeger A.V. FIDIC - a guide for practitioners. N.Y., 2010.
16. German Civil Code. Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb
17. Austrian Civil Code. Available at: <https://www.ris.bka.gv.at/GeltendeFassung.wxe?Abfrage=Bundesnormen&Gesetzesnummer=10001622>
18. Swiss Civil Code. Available at: https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/27/317_321_377/en
19. Japanese Civil Code. Available at: <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3494/en>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 5-SON

VOLUME 4 / ISSUE 5 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5.